

DAVLAT ISHTIROKIDAGI KOMPANIYALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNING OCHIQLIGI VA SAMARDORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

*Xoliqov Nozir Nozim o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Kenjayeva U.F.*

Annotatsiya

Tezisda davlat ulushi mavjud korxonalarda korporativ boshqaruv, uning ochiqliligi va IHTT ning davlat ulushi mavjud korxonalarini boshqarishda korporativ boshqaruvning yetakchi tamoyillari keng talqin qilingan. Shuningdek, davlat ulushi mavjud kompaniyalarning samaradorligini oshirishda ochiqlik bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Korporativ boshqaruv, IHTT, korporativ samaradorlik, kompaniya faoliyati ochiqligi, davlat korxonasi, Davlat ulushi mavjud korxonalar korporativ boshqaruvi uchun yagona xalqaro standart.

“O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli Farmoni bilan xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'naliшlarini belgilash maqsadida: “2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning yettita ustuvor yo'naliш bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu hujjatda iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektor uchun keng yo'l ochish maqsadida eksklyuziv huquqlarni bekor qilish va davlat ishtirokidagi kompaniyalarni xususiylashtirish hisobiga 25 dan ortiq faoliyat turi bo'yicha monopoliyalar tugatiladi”. So'nggi yillarda mamlakatimizda keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Bundan tashqari kompaniyalarda davlat ulushini qisqartirish va xususiy sektor ulushini oshirish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi asosida islohotlar bosqichma boshqich amalga oshirilyapti. Ammo, shunga qaramasdan ba'zi kompaniyalarda davlat ulushi yuqoriligidcha qolmoqda. Shiddat bilan rivojlanayotgan ayni bir davrda ushbu kompaniyalar boshqaruvini zamon bilan hamnafas rivojlantirib borish davlat oldida dolzarb vazifalardan biridir. Bu borada biz bevosita xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarini va tajribalariga murojaat qilamiz.

“Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development) fond birjalari, investorlar, kompaniyalar va boshqa ishtirokchilar uchun ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqqan va ushbu tavsiyalar samarali korporativ boshqaruvni rivojlantirish, shuningdek a'zo bo'lган va a'zo bo'lмаган davlatlar uchun korporativ boshqaruvni huquqiy va instutsional tartibga solish uchun asos bo'ib xizmat qiladi”.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) dastlab Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti qoshida tashkil etilgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot

tashkiloti unga a'zo bo'lган mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, iqtisodiyotni yuksaltirish va aholi turmush darajasini yaxshilash, moliyaviy barqarorlikni saqlashni tatbiq etadi. "IHTT ning davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ boshqarish bo'yicha tavsiyalari 2005-yilda taqdiqlangan va 2015-yilga kelib Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ boshqarish bo'yicha tavsiyalari yangi tahrirda qabul qilingan".

Hozirgi kunda davlat ulushi mavjud korxonalar uchun yagona hisoblangan tavsiyalar – IHTT ning Davlat ulushi mavjud kompaniyalar uchun korporativ boshqarish bo'yicha tavsiyalari biz uchun ham dastur ul-amal hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruv uchun andoza qilib Yevropa korporativ boshqaruv modeli tanlab olinganini hisobga olsak, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ga bir qator Yevropa mamlakatlari a'zo hisoblanadi va ushbu tashkilot tavsiyalariga amal qilishadi. O'z o'rnida mamlakatimiz uchun ushbu tashkilot tavsiyalari ham aktualligini saqlab qoladi.

IHTT ning Davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ boshqarish bo'yicha yetakchi tamoyillari (OECD Guidelines on Corporate Governance of state-owned Enterprises) quyidagi bo'limlardab iborat:

- Davlatning kompaniyaga egalik qilish assoslari.
- Davlatning egalik qilishdagi roli.
- Davlat ulushi mavjud korxonaning bozordagi ulushi.
- Davlatning boshqa aksiyadorlar va investrolar bilan teng huquqli munosabatda bo'lishi
- Manfaatdor tomonlar bilan munosabat qilish Davlatning mas'uliyati.
- Axborot oshkorligi va shaffofligi
- Davlar ishtirokidagi korxonalar boshqaruv organlarining majburiyatları.

Ushbu tamoyillar Davlat ulushi mavjud korxonalar uchun yozilgan tavsiyalar ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Davlat korxonasi va davlat ishtirokidagi korxona tushunchalari bir – biridan farq qiladi. Davlat korxonasi davlatning mutlaq mulchilik shakli hisoblanadi.

"Davlat korxonasi - davlat mulkidagi, o'ziga tezkorlik bilan boshqarish uchun berilgan mulk negizida tashkil etilgan davlat unitar korxonasi shaklidagi tijorat tashkilotidir, u o'ziga birkitilgan mulkdan qonunda belgilangan doirada, o'z faoliyati maqsadlariga, mulkdorning (yoki uning topshirig'iga ko'ra u vakolat bergen davlat organi — muassisning) topshiriqlariga hamda egalik qilish huquqidagi mulknинг maqsadiga muvofiq mulkdan foydalanishni va uni tasarruf etishni amalga oshiradi". Shunday qilib Davlat korxonasi ushbu korxonani boshqarish huquqi berilgan muassis tomonidan boshqariladi.

Qonuniy-huquqiy hujatlarda davlat ishtirokidagi korxonada quyidagicha ta'riflar berilgan bo'lib, IHTT ning Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarishda korporativ boshqaruvning yetakchi tavsiyalarida "Davlat ishtirokidagi korxona – davlat mulkchilik huquqini to'liq yoki qisman amalga oshiradigan, davlat ulushi bo'lган korporativ (yuridik) shaxs. Bularga aktsiyadorlik jamiyatları, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar, xo'jalik shirkatlari va h.k. kiradi" deb ta'rif berilgan.

Davlat ulushi mavjud kompaniyalarda boshqa investorlar bilan teng huquqli tartibda Davlatning ishonchli vakili orqali IHTT tavsiyalari asosida va mamlakatimiz

qonunchiligidagi belgilangan tartibda boshqaruv tashkil etiladi. Davlatning ishonchli vakili va boshqa aksiyadorlarning egalik qiluvchi hissalari doirasida teng huquqli bo'lishi raqobatni rivojlantirishga yordam beradi hamda boshqa korxonalar bilan teng raqobat qilishi uchun zamin yaratadi.

Yuqoridagi jarayonda biz albatta kompaniya faoliyati ochiqligi va shaffofligiga e'tibor qaratishimiz zarur, bu haqida IHTT ning Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarishda korporativ boshqaruvning yetakchi tavsiyalaridaning 6-bo'limida alohida to'xtalib o'tilgan. Albatta, bu borada ham keng ko'lamli ishlar amalgamashirib, listingda turgan barcha kompaniyalar uchun axborot oshkorligi bo'yicha bir xil talab qo'yilgan. IHTT tavsiyasi asosida Davlat ulushi mavjud kompaniyalarda ham ochiqlik standartlariga rioya qilish asosiy vazifalardan bo'lib hisoblanadi. Listingdagi kompaniyalar singari Davlat ulushi mavjud korxonalarda ochiqlikni ta'minlash maqsadida, mustaqil auditorlik tashkilotlari tomonidan milliy va xalqaro stansartlar asosida shakllantirildan buxgalteriya hisobotlarining yuritilishi bo'yicha taqdim etilgan audit xulosalari muntazam oshkor etib boriladi.

Bundan tashqari mamlakatimizda keng ko'lamli xususiylashtirish ishlari olib borilmoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda xususiy mulk ulushini oshirish orqali biz raqobatni rivojlantirishimiz undan keyin esa axborot oshkorligi va shaffoflikni bundanda yuqori darajaga chiqarishimiz mumkin. Birgina shu bilan cheklanibgina qolmay, kompaniya samaradorligini oshirishga sezilarli darajada erishishimiz mumkin. Davlat ulushi mavjud kompaniya faoliyati samaradorligini oshirish uchun kompaniyalar boshqaruvidagi davlatning ishonchli vakili va ushbu shaxslar hisobdor bo'lgan yuqori turuvchi organlar orasida mustahkam aloqa o'rnatish kerak. Albatta, ushbu jarayon birmuncha mashaqqat talab qilishi mumkin. Ammo xalqaro tashkilotlar tavsiyalarini asosida tashkil etilgan korporativ boshqaruv bilan ushbu jarayon birmuncha osonlashadi va shaffoflik ta'minlanadi.

Xorij tajribasidan kelib chiqib mamlakatimizda Davlat ulushi mavjud korxonalarda davlat ulushi qisqartirilishi va butunlay xususiylashtirilishini aytishimiz mumkin. Shunga qaramasdan hozirgi kunda ushbu korxonalar faoliyatini o'z holiga tashlab qo'yish yaramaydi va bunday loqaydlikka mamlakatimizda also yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ““2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmonida belgilab qo'yilgan ustuvor yo'nalishlarning uchinchi ustuvor yo'nalishi – “milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash” hisoblanadi. Ushbu ustuvor yo'nalish doirasidagi vazifalarda davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarilishi” belgilab qo'yilganligi mamlakatimizda bu borada qilinayotgan ishlar dolzarbligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda davlat korxonalarida oshkorlikni ta'minlash orqali davlat korxonalarini sektorining korporativ boshqaruv mexanizmlarini mustahkamlash, ularning boshqaruv kengashi oldidagi aniq hisobdorlik muhutini yaratish hamda kengashning samaradorligini oshirish, davlat korxonalarida mahalliy va xorijiy investorlarni jalg qilish orqali sektor raqobatbardoshlilagini oshirish, davlat korxonalarini va xususiy sektor korxonalarini o'rtasida teng sharoit yaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmoni "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" - <https://lex.uz/docs/5841063>

[2] Bob Tricker. Corporate governance: principles, policies and practices. – UK.: Oxford university press, 2012. – P. 151.

[3] Z.A. Ashurov, F.A. Jalilov, B.N. Urinov Zamoniaviy korporativ boshqaruv (xorijiy tajriba). – T.: Iqtisodiyot, 2021. –195 s

[4] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 215-sonli Qarori "Ustav fondida Davlat ulushi bo'lgan korxonalarning samarali boshqarilishini va Davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" - <https://lex.uz/uz/docs/-1072916>

[5] OECD (2016), OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises, 2015 Edition: (Russian version), OECD Publishing, Paris

IMPROVING THE EFFICIENCY OF CORPORATE GOVERNANCE IN STATE OWNED ENTERPRISES

*Fayziyev Zohir Faxriddin o'g'li
student of Tashkent state university of economics
zohirfayziyev1108@gmail.com*

Annotation

The state has more impact on both private and on corporations which has direct link with state. Their influence might not always give growth to corporation. In the process we will discuss what problems these corporations facing under state control and how it can be mitigated while improving CSR and CG in them.

Key words: Corporate governance, shares, stakeholders, golden share.

Beginning of 2017, Uzbekistan initiated a comprehensive set of structural reforms designed to revitalize key sectors, liberalize its markets, and introduce market mechanisms into the economy. Given the continued importance of state-owned enterprises (SOEs) across a number of sectors in the country, any package of economic reforms must necessarily take into account the high dominance of these enterprises across multiple sectors and address issues specifically related to or stemming from this dominance.

In Uzbekistan, state-owned enterprises (SOEs) have traditionally been regarded as a crucial tool for achieving the country's industrial policy goals. During the past two decades, Uzbekistan has implemented a variety of activist industrial policies aimed at bolstering existing industrial capacities and developing new ones. SOEs have been an integral part of this strategy, and the state's production, export, and import substitution goals for a vast array of goods have typically been translated into specific objectives for significant SOEs. The legislation also specifies that SOEs in a number of sectors are of strategic significance to the nation's economic development. Significant SOEs overseeing economic sectors can trace their origins to sector ministries. Historically,